

27 " 01 2022 yil

Termiz shahri

Surxondaryo viloyati hokimligi huzuridagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" davlat unitar korxonasi (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktori J.Mengliyev hamda ikkinchi tomondan Buyurtmachi (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbari S. Xurramov ushbu shartnomani quyidagicha tuzdilar:

1.Shartnoma predmeti

1.1.Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ning buyurtmasiga asosan «Collective.uz» elektron xujjat aylanishi tizimidan foydalanishni texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash xizmatini ko'rsatadi, «Buyurtmachi» esa ushbu ko'rsatiladigan xizmatlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

1.2. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» tomonidan buyurtma qilingan quyidagi

| T/r | Bajariladigan ishning nomi | O'l. bir. | Miq-dori | Narxi | Summa | QQS | | QQS bilan summa |
|-------------|--|-----------|----------|------------------|------------------|------|----------------|------------------|
| | | | | | | % | summa | |
| 1 | 2022 yilda «Collective.uz» elektron hujjat aylanishi tizimidan foydalanishni texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash xizmatlari uchun to'lov. (9 tadan – 15 tagacha foydalanuvchi uchun). | dona | 1 | 1 500 000 | 1 500 000 | 15 % | 225 000 | 1 725 000 |
| JAMI | | | | 1 500 000 | 1 500 000 | | 225 000 | 1 725 000 |

Ishlar hajmini bajarib beradi, «Buyurtmachi» esa ish hajmi bo'yicha bajarilgan (xizmatlar) ishlarni qabul qilib, mazkur shartnoma shartlari asosida to'lovlarni amalga oshiradi.

2.Taraflarning huquq va majburiyatlari

2.1. «Buyurtmachi»ning huquqlari:

«Bajaruvchi»dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

«Bajaruvchi»dan «Xizmatlar» «Buyurtmachi»ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

«Xizmatlar»ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar «Buyurtmachi» yohud, uchinchi shaxslar tomonidan to'g'irlanishi xarajatlarini qoplashni;

shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Bajaruvchi»dan talab qilish.

2.2. «Buyurtmachi»ning majburiyatlari:

o'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan «Xizmatlar»ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilib olish;

«Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.2-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha oldindan 30 % to'lovni amalga oshirish.

2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

ko'rsatilgan «Xizmatlar» uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob-kitob qilinishini «Buyurtmachi»dan talab qilish;

berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan «Xizmatlar»ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Buyurtmachi»dan talab qilish.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

«Buyurtmachi»ga «Xizmatlar»ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Buyurtmachi» tomonidan mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

agar «Xizmatlar»ni ko'rsatish jarayonida «Bajaruvchi» shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, «Buyurtmachi»ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 ish kuni muddatda tekin tuzatib berish.

3.Bajariladigan ish hajmining narxi va umumiy qiymati

3.1 Bajariladigan ish hajmining umumiy qiymati Respublikamiz milliy valyutasi sumda belgilanadi.

3.2 Shartnomaning umumiy summasi QQS bilan **1 725 000 (Bir million yetti yuz yigirma besh ming)** so'mni tashkil kiladi.

3.3 Bajariladigan ishning qiymati, narx oshganligi natijasida o'zgarganda, «Buyurtmachi»ga oldindan xabardor qilib, o'zgargan narxini asoslagan holda ish bajariladi.

4. To'lov shartlari

4.1 Shartnoma to'liq qiymatining 30% i miqdorda 5 bank kunida «Bajaruvchi»ning hisob raqamiga (so'mda) oldindan to'lovni amalga oshiradi.

4.2 Shartnomada ko'rsatilgan ishlar bajarilgandan so'ng ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi asosida rasmiylashtiriladi va qolgan 70% to'lov «Bajaruvchi»ning hisob raqamiga 5 bank kuni ichida o'tkazib beriladi.

4.3 «Buyurtmachi» tomonidan mazkur shartnomaning 4.1. bandi talablari bajarilmagan taqdirda «Bajaruvchi» shartnomada ko'rsatilgan ish hajmini bajarmaslikga haqli bo'ladi.

4.4 «Buyurtmachi» to'lovlarni bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat, akt dalolatnomasi, hisob-faktura)ga asosan shartnomadagi umumiy summadan chiqmagan holda amalga oshiradi.

5. Ishni topshirish shartlari

5.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlansa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

- 5.2. «Xizmatlar» qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sanasiga hisoblanadi hamda taraflar tomonidan imzolandi.
- 5.3. Bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma ikkala tomondan imzolangan kundan boshlab bajarilgan ishlar, dasturiy texnik vositalar «Buyurtmachi»ga o'tadi.
- 5.4. Ishni topshirishdan boshlab, kelishilgan muddatga qadar «Buyurtmachi» bajarilgan ishning sifatiga kafolat beradi va o'z vaqtida texnik qo'llab quvvatlanishini o'z zimmasiga oladi.
- 5.5. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq ish bajarilgan joyida topshiriladi.

6. Shartnomaning amal qilish muddati

- 6.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil "31" dekabrgacha amal qiladi.
- 6.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

7. Taraflarning javobgarligi

- 7.1. Agar ko'rsatilgan «Xizmatlar»ning sifati, texnik shartlar talablariga yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan «Xizmatlar» qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.
- 7.2. Xizmatlar ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan «Xizmatlar» qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va «Xizmatlar» ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmaligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.
- 7.3. Ko'rsatilgan «Xizmatlar» uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.
- 7.4. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8. Nizolarning hal etilishi

- 8.1. Ushbu shartnoma yuzasidan taraflar o'rtasida nizo va ziddiyatlar kelib chiqqanda tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda muzokoralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.
- 8.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

9. Fors-major va javobgarlikdan ozod etish

- 9.1 Tomonlarning xohish - istagiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan hollarda (Noqulay ob-havo sharoitlari, zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar (fors-major) tufayli bajarilmagan yoki qisman bajarilmagan (yetkazib berilmagan yoki to'lab berilmagan)ligi, shartnoma shartlarini ijro etish buzilgan deb hisoblanmaydi va tomonlarni shartnomani bajarish muddati kelishilgan muddatga kechiktiriladi.

10. Yakuniy qoidalar

- 10.1. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga muvofiq yoki bir taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda ikkinchi tarafning talabi bilan faqat xo'jalik sudining qaroriga binoan bekor qilinishi va o'zgartirilishi mumkin. Shartnomani bir tarafdin bekor qilish yozma taklif berish yuli bilan amalga oshiriladi. Taklif olingandan so'ng 30 kunlik muddat ichida unga javob olinmagan taqdirda shartnomani o'zgartirish va bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.
- 10.2. Taraflar o'zlarining yuridik manzillari va boshqa rekvizitlari o'zgarganligi haqida bir - birlarini 3 kunlik muddatda xabardor qilishlari shart.
- 10.3. Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan holdagina haqiqiydir.
- 10.4. Mazkur shartnoma G'aznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi va «31» dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi.
- 10.5. Mazkur shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib ikki tomon uchun xam teng kuchga ega bo'lib bank xisob-kitoblarini amalga oshirishga asos bo'ladi.

11. Taraflarning rekvizitlari:

«BAJARUVCHI»

«Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi» DUK
Manzil: Termiz shahri At-Termiziy maydoni 1-uy
Tel: 0-376-224-01-29
X'v: 20210000105002755001
Bank nomi: ATB «Xamkorbank» Termiz filiali
MFO: 01001 INN: 207 161 605
KTUT: 24090315
OKED: 82990

Direktor  J. Mengliyev
M.O:

«BUYURTMACHI»






Manzil: 177 Teplovoye st.
Faks: _____
Bank nomi: ATB XAMKORBANK
Bank kodi: 2001 INN: 200425685
KTUT: _____

Rahbar 



ro'yxatdan o'tkazilgan:  va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.